

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT
BILAN TANISHTIRISHGA QO'YILADIGAN VAZIFALAR VA ULARNI
BADIY ADABIYOT ORQALI BADIY NUTQQA O'RGATISH.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7792835>

Akbarova Zuxra Akmaljonovna

filologiya fanlari doktori(DSc).

Nosirova Gulira'no Muhammadolimovna.

*FarDu Ta'lism tarbiya nazaryas i va metodikasi
(maktabgacha ta'lism) yo`nalishi magistranti.*

Anotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni baadiy adabiyyot bilan tanishtirishda qo'yiladigan talablar,bolalarni badiy adabiyyotga o'rgatishda nutq o'stirish mashg`ulotlarining o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so`zlar

Baadiy adabiyyot, nutq,ertak,hikoya,she'r

Mamlakatimizda ertangi kun egalari bo'lmish yosh avlod ta'lism va tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunida ta'lism O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi. Yurtimizda xalqimizning ko'p asrlik ezgu orzulari ro'yobga chiqayotgan bugungi kunda madaniy va ma'rifiy sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biri bolalarni yoshligidanoq- yani maktabgacha ta'lism yoshidanoq har tomonlama bilimli qilib tarbiyalashdan iboratligi barchamizga ayondir. "Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lishiga, qanday oliv maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak" -degan edi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Binobarin, mustaqil fikr yuritadigan, to'g'ri va halol, jasur avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir. Ha, bunday yoshlar kamolotida, albatta, badiy adabiyyot, xususan, bolalar adabiyyoti katta rol o'ynaydi. Chunki, kichkintoylar alla, qo'shiq, maqol, masal, topishmoq, tez aytish, ertak eshitib, o'qib kamol topadilar. Bu janrlar vositasida ularning qalblari nurga to'ladi, hayotga intilish, qiziqish hislari jo'sh uradi. Ma'naviy tomonidan ham yuksala boradilar.

Xususan, kitobxonlikka mehr uyg'otish, bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa bolalarga atalmish vaqtli matbuot, bolalar kitobi, kitobxonlikka mehr uyg'otish orqali o'tkazish, ta'lim - tarbiya berishda alohida o'rinni egallaydi. Adabiyot fanining asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat bilim berishgina emas, balki tarbiyalashdan ham iborat. Bolalar adabiyotini o'qitishda didaktikaning roli xususida fikr yuritish mazkur ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi, demakki, muayyan ma'rifiy - estetik g'oyani ilgari surish lozim. Badiiy adabiyotining yana bir muhim xususiyati uning pedagogika bilan mahkam bog'langanligidadir. Bolalar adabiyoti talablari bilan birga pedagogika talablariga ham alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shu talablar asosida yaratilgan g'oyaviy - badiiy yuksak asarlar bolalar uchun eng qimmatli kitoblar hisoblanadi. Zero pedagogika bilan bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari mushtarak: yosh avlodga chinakam aqliy - axloqiy estetik va jismoniy tarbiya berishdir. Bolalar yozuvchilari bolalarga mos, ularni qiziqtiradigan va ulkan ishlarga otlantiradigan asarlar yozib, yorqin, kuchli badiiy obrazlar yaratib, yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o'stirib chiniqtirishda va har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan, mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, davlatimizga katta yordam berishlari kerak. Hozirgi zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxonning sevimli do'stiga, hamrohiga aylanib qoladi. Insonni bolalarga avvalo buyuk qahramon, noma'lum mamlakatlarni kezgan qo'rmas sayyooh, afsonaviy pahlavon, haqiqat uchun kurashuvchi, o'z orzuumidlariga sodiq, irodali qilib ko'rsatish kerak. Barcha yozuvchilarning eng yaxshi asarlari bolalarni atrofdagi hodisalarga to'g'ri baho berishga o'rgatadi, kishilarimizning yuksak ma'naviy sifatlarini ko'rsatadi, bolalarni ona Vatanga, mehnatga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Kitob bolalarga hayotni o'rgatuvchi haqiqiy muallim bo'lishi uchun ularning kitobxonligini to'g'ri tashkil qilish kerak. Bolalar tarbiyachidan eshitgan kitoblar yuzasidan o'qituvchining rahbarligida turli mulohazalar, muhokamalar, kitobxonlar konferensiyasi o'tkazib turish katta foyda keltiradi. O'qituvchi va tarbiyachilarning bolalar adabiyotidan foydalana bilishlari, maktabda va bog'chada ta'lim - tarbiya ishlarining sifat va samarasini yanada yuqori darajaga ko'tarishi, o'quvchilarning badiiy kitoblarga bo'lgan muhabbatini oshirish ishlarini yaxshilash

vositalaridandir. Ilg'or izlanuvchan o'qituvchi har bir dars uchun yangilik izlaydi, ish jarayonida yangi metod va usullarni qo'llaydi. Har bir mavzu ustida ishlar ekan, albatta qo'shimcha adabiyotlarni topadi, ishlab chiqadi. Adabiyot darsida matn ustida o'quvchilar bilan fikrlashar ekanmiz ularning nutqini o'stirishga alohida e'tibor bermog'imiz lozim. She'rlarni ifodali o'qish bilan birga, yod olishga topshiriq berib, har bir mavzuni o'quvchining shaxsiy hayoti bilan bog'lab, tushuntirib xulosalaydi. Ma'lumki, badiiy asar bolalarning estetik did va tushunchasini shakllantiradi, shoир ijodiga havas hissini oshiradi. Bolalar uchun ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar uning g'oyaviy mazmunini tushunishga yordam berishi bilan birga kitobxonning nutqini o'stiradi, boyitadi, xalq tilining kuchi, boyligi va go'zalligini bilib olishga imkon beradi. Ona tiliga muhabbatini oshiradi. Hozirgi zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi boy, ravon, obrazli va ifodali tili bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday asarlar kitobxonning sevimli do'stiga hamrohiga aylanib qoladi. Hayotni faol sur'atga o'zgartirayotgan jamiyat taraqqiyotida kurashlarda oldinda borayotgan ilg'or kishilar, mehnatkashlar haqqoniy san'atning bosh qahramonlari hisoblanadi. Ta'lim maqsadlarining muntazam tarzda yangilanib turilishi, uzlusiz boyitilishi ta'lim mazmunining yangi modellarini tanlash uchun asos bo'ladigan ustuvor yo'nalishdir. Bugungi kunda ta'lim mazmunida shaxs, jamiyat, fan-texnika, ishlab chiqarish ehtiyojlari chambarchas bog'langan holda o'z ifodasini topmog'i lozim. Shunga ko'ra, ta'lim, fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish yagona tizimni tashkil etishi kerak. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining bosh maqsadi ham asosan shundan iboratdir. Bu tizim istiqbolda O'zbekiston Respublikasining yangi iqtisodiy tarmog'ini taraqqiy etishi uchun xizmat qilishi nazarda tutilmoqda. Chunki, ta'lim jarayonining natijasi shaxs ma'nnaviy kamolotini ta'minlashi bilan bir qatorda, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qilishi talab etilmoqda. Bu esa ta'lim mazmunining ishlab chiqarish, fan-texnika, madaniyat, ma'rifatni rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi, demokratik, shaxsga yo'naltirilgan modelini belgilab berishni taqozo qilmoqda. Bu model birinchi navbatda o'qitish jarayonining tarbiyaviy imkoniyatlarini va bilim oluvchilarda hosil bo'ladigan muayyan bilim, ko'nikma, malakalardan ijtimoiy hayotda samarali foydalana olish imkoniyatini kengaytiradi. Bu o'z navbatida bola shaxsini bir butun ijtimoiy birlik sifatida shakllantirish jarayonini tezlashtiradi. Ta'lim mazmunining yangi modelini tanlashda jamiyat va shaxs hayotini rivojlantirishning quyidagi asosiy ikki yo'nalishiga tayanish lozim:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Федоренко Л.П. «Методика развития речи детей дошкольного возраста» М. : Просвещение, 2007.
2. Гербова В.В. «Занятия по развитию речи с детьми» М.: Просвещение, 2004.
3. Fayzullayeva M. Nutq o`stirish savodga tayyorgarlik.T : 2014
4. " Bolaga yo`naltirilgan ta'lim" dasturi T:2011
5. "Maktabgacha ta'limga qo`yiladigan davlat talablari" T. 2017